



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
Ergashev Jo'rabek Xalilovich	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
Jonbo'tayeva Maxarramxon	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	



ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING IJTIMOIYLASHUVINI TA'MINLASHGA XIZMAT QILUVCHI ZAMONAVIY KOMPLEKSNI RIVOJLANTIRISH

Yunusov Mirsaid Xudayarovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

ORCID: 0000-00001-83005402

Istamova Sevdoo Ashirqul qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Surdopedagogika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleks yondashuvlarning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Eshitish qobiliyatining buzilishi bolaning shaxsiy, nutqiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun pedagogik, psixologik, ijtimoiy va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o'z ichiga olgan kompleks tizimlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida zamonaviy ta'lim texnologiyalari, inklyuziv ta'lim imkoniyatlari va ijtimoiy moslashuv mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, ijtimoiylashuv, inklyuziv ta'lim, surdopedagogika, kommunikativ kompetensiya, zamonaviy kompleks, integratsiya, maxsus pedagogika, ijtimoiy moslashuv, raqamli texnologiyalar.

Abstract: This article examines the theoretical and practical foundations of modern comprehensive approaches aimed at ensuring the socialization of children with hearing impairments. Hearing loss significantly affects a child's personal, speech, psychological, and social development. Therefore, the development of integrated systems that include pedagogical, psychological, social, and information-communication technologies is essential for their successful integration into society. The study analyzes the effectiveness of modern educational technologies, inclusive education opportunities, and mechanisms of social adaptation.

Key words: children with hearing impairments, socialization, inclusive education, surdopedagogy, communicative competence, modern comprehensive approach, integration, special education, social adaptation, digital technologies.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы современных комплексных подходов, направленных на обеспечение социализации детей с нарушениями слуха. Нарушение слуха оказывает значительное влияние на личностное, речевое, психологическое и социальное развитие ребёнка. В связи с этим для их успешной интеграции в общество важно развивать комплексные системы, включающие педагогические, психологические, социальные и информационно-коммуникационные технологии. В ходе исследования был проведён анализ эффективности современных образовательных технологий, возможностей инклюзивного образования и механизмов социальной адаптации.

Ключевые слова: дети с нарушениями слуха, социализация, инклюзивное образование, сурдопедагогика, коммуникативная компетенция, современный комплекс, интеграция, специальная педагогика, социальная адаптация, цифровые технологии.

KIRISH

So'nggi yillarda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish, maxsus ehtiyojga ega bolalarning jamiyatga to'liq integratsiyasini ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi masalasi ularning nutqiy, psixologik va kommunikativ rivojlanishidagi o'ziga xos cheklolar bilan bevosita bog'liqdir. Eshitish qobiliyatining buzilishi bola shaxsining jamiyat bilan to'liq muloqotga kirishish imkoniyatlarini cheklaydi, bu esa ularning ijtimoiy moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli mazkur toifa bolalar uchun zamonaviy pedagogik, psixologik va axborot-kommunikatsion texnologi-

yalarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, ularning teng ta'lim olish huquqini ta'minlash hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash zarurati bilan izohlanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvlarni keng joriy etish, surdopedagogik usullarni rivojlantirish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ushbu muammoni hal etishda muhim omil hisoblanadi [10, 11].

Tadqiqot obyekti - eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim va ijtimoiylashuv jarayoni.

Tadqiqot predmeti - eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleks pedagogik, psixologik va ijtimoiy yondashuvlar hamda texnologiyalar.

Tadqiqot maqsadi - eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini samarali ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleks yondashuvlarni o'rganish, tahlil qilish va ularning amaliy samaradorligini asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuv jarayonining nazariy asoslarini o'rganish;
- inklyuziv ta'lim tizimining mazkur jarayondagi o'rnini tahlil qilish;
- zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarni aniqlash va o'rganish;
- raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsion vositalarning imkoniyatlarini baholash;
- ijtimoiy moslashuv mexanizmlarining samaradorligini tahlil qilish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi muammosi surdopedagogika, maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim sohalarida keng o'rganilgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bolalarning nutqiy rivojlanishi, kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlari alohida e'tibor markazida bo'lgan. Xususan, surdopedagog olimlarning ishlari eshitish nuqsoniga ega bolalarda kompensator rivojlanish mexanizmlarini shakllantirish, imo-ishora tili va og'zaki nutqni parallel rivojlantirish muhimligini asoslab beradi. Kar bolalarda yozma nutqni rivojlantirishning metodologik asoslari bir qator fundamental psixologik-pedagogik nazariyalarga tayanadi. Xususan, L. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi bolaning mustaqil bajara olmaydigan, ammo kattalar yordamida o'zlashtira oladigan faoliyat turlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, ushbu nazariyalar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini rivojlantirishning ilmiy-metodologik poydevorini tashkil etib, ularning o'z fikrini ifodalash ko'nikmasini rivojlantirish, murojaatlarga motivatsiyani oshirish va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [8].

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RB-637-son¹ "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida "ta'limning uzluksizligi va izchilligi, davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olish" qayd etilgan [1].

Inklyuziv ta'lim bo'yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarda esa nogironligi bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga integratsiya qilish, teng imkoniyatlarni yaratish va individual yondashuvni qo'llash zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, xalqaro tajribalarda (UNESCO, UNICEF materiallari va inklyuziv ta'lim konsepsiyalari) eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun multimodal ta'lim muhitini yaratish, ya'ni vizual, taktil va raqamli texnologiyalarni birlashtirish samarali usul sifatida ko'rsatilgan [3, 4, 5].

Zamonaviy tadqiqotlarda axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) yordamida nutqni rivojlantirish dasturlari, mobil ilovalar va onlayn platformalarning ijtimoiylashuv jarayonidagi o'rnini ham keng yoritilgan. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi kompleks yondashuv, pedagogik, psixologik, tibbiy va texnologik omillar uyg'unligi asosida samarali amalga oshiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleks yondashuvlarni o'rganish uchun quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. **Nazariy metodlar:** ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish; pedagogik, psixologik hamda surdopedagogik manbalarni qiyosiy tahlil qilish; inklyuziv ta'limga oid xalqaro va milliy konsepsiyalarni o'rganish.

1 lex.uz/docs/-5013007



2. **Empirik metodlar:** kuzatish metodi (ta'lim jarayonida bolalarning xulq-atvori va kommunikatsiyasini o'rganish); suhbat va intervyu (pedagoglar, ota-onalar va mutaxassislar bilan); pedagogik tajribalarni tahlil qilish.
3. **Tahliliy-metodik yondashuv:** olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish; kompleks yondashuv samaradorligini baholash; ijtimoiylashuv jarayonida AKT vositalarining rolini tahlil qilish.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, inklyuziv ta'lim tamoyillari hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi asos qilib olindi. Bu esa eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlashda zamonaviy kompleks yondashuvlarning samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, mazkur toifa bolalarning rivojlanishida faqat bitta yo'nalishdagi yondashuv (masalan, faqat pedagogik yoki faqat tibbiy yordam) yetarli emas, balki integratsiyalashgan pedagogik, psixologik, ijtimoiy va texnologik omillar uyg'unligi muhim ahamiyatga ega [6, 7].

Pedagogik omillar tahlili. Tahlillar natijasida inklyuziv ta'lim muhitida tashkil etilgan darslar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda o'quv motivatsiyasini oshirishi, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirishi aniqlandi. Individual yondashuv, differensial ta'lim usullari va surdopedagogik metodlar bolalarning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada yaxshilagan.

Psixologik omillar tahlili. Psixologik kuzatuvlar natijasida shaxsiy ishonch, o'zini baholash va muloqotga kirishish darajasi inklyuziv muhitda o'qiyotgan bolalarda nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Qo'llab-quvvatlovchi muhit, pedagog va tengdoshlar bilan ijobiy munosabatlar bolalarning emotsional barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Ijtimoiylashuv jarayoni tahlili. Ijtimoiy moslashuv jarayonida tengdoshlar bilan hamkorlik faoliyati muhim rol o'ynashi kuzatildi. Guruhli ishlar, o'yinlar va kommunikativ mashg'ulotlar bolalarning jamiyatga moslashuvini tezlashtirgan. Shu bilan birga, imo-ishora tili va vizual kommunikatsiya vositalaridan foydalanish muloqotni sezilarli darajada yengillashtirgan.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar (interaktiv dasturlar, mobil ilovalar, vizual o'quv platformalari) eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilim olish jarayonini faollashtiradi. AKT vositalari orqali taqdim etilgan vizual ma'lumotlar ularning eslab qolish va tushunish qobiliyatini oshirgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar shakllandi:

- eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi kompleks yondashuv asosida samaraliroq amalga oshadi;
- inklyuziv ta'lim muhiti bolalarning kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- surdopedagogik usullar nutq va muloqot rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- psixologik qo'llab-quvvatlash bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi;
- AKT vositalari ta'lim jarayonini vizuallashtirib, tushunishni osonlashtiradi va ijtimoiylashuvni tezlashtiradi.

Umuman olganda, tadqiqot eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlashda kompleks yondashuvlarning yuqori samaradorligini tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi murakkab va ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatdi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi pedagogik, psixologik, ijtimoiy va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvga bevosita bog'liqdir. Tahlillar shuni tasdiqladiki, inklyuziv ta'lim muhitida ta'lim olayotgan bolalarda kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy faollik va o'ziga ishonch darajasi sezilarli darajada rivojlanadi. Surdopedagogik metodlardan foydalanish, imo-ishora tilini qo'llab-quvvatlash hamda vizual o'qitish vositalari bolalarning bilim olish va muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, psixologik qo'llab-quvvatlash va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish ijtimoiy moslashuvni tezlashtiradi. Umuman olganda, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatga integratsiyasi faqat tizimli va kompleks yondashuv asosida samarali amalga oshirilishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalariga asosanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- inklyuziv ta'lim muassasalarida surdopedagogik yondashuvlarni yanada keng joriy etish;
- o'qituvchilar uchun eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- ta'lim jarayonida imo-ishora tili va vizual kommunikatsiya vositalaridan tizimli foydalanishni kuchaytirish;
- raqamli texnologiyalar va maxsus mobil ilovalarni inklyuziv ta'limga keng tatbiq etish;
- psixologik xizmatlarni kuchaytirish va bolalar uchun doimiy individual qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish;
- ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish va ularga metodik yordam ko'rsatish;
- inklyuziv muhitda tengdoshlar o'rtasida ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan trening va mashg'ulotlarni tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning to'laqonli ijtimoiylashuvi uchun ta'lim tizimida kompleks, izchil va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabrdagi O'RBQ-637-son2 "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi O'RBQ-641-son3 "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. UNESCO. Inclusive Education: The Way of the Future. – Paris: UNESCO Publishing, 2009.
4. UNICEF. Children with Disabilities: Ensuring Inclusion in Education. – New York: UNICEF, 2021.
5. World Health Organization (WHO). World Report on Hearing. – Geneva: WHO, 2021.
6. Сурдопедагогика: Учебник для вузов / Под ред. Е. Г. Речицкой. – Москва: Владос, 2018.
7. Боскис Р. М. Глухие и слабослышащие дети. – Москва: Просвещение, 2015.
8. Выготский Л. С. Основы дефектологии. – Москва: Педагогика, 1983.
9. Назарова Н. М. Специальная педагогика. – Москва: Академия, 2016.
10. Галлямова З. Инклюзивное образование в современном мире. – Ташкент, 2022.
11. Sodiqova M. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim asoslari. – Toshkent, 2021.
12. Internet manbalari: <https://www.unesco.org>; <https://www.unicef.org>; <https://www.who.int>

2 <https://lex.uz/docs/-5013007>

3 <https://lex.uz/docs/-5049511>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.